

**RAQAMLI TA'LIM SHAROITIDA NODAVLAT MAKTABGACHA TA'LIM
TASHKILOTINI SAMARALI BOSHQARISH USULLARI**

Berdikulova Nasiba Jo`rakulovna

Guliston davlat universiteti
“Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi”
yo’nalishi doktoranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada hozirgi kundagi daolzarb mavzu bo’lgan maktabgacha ta’lim tashkilotlarini samarali boshqaruv usullari batafsil yoritilgan. Farzandlarimizni erta yoshdan bilimga bo’lgan qiziqishini oshirish va tashkilotda bolalar o’sishi va rivojlanishi uchun qulay muhit yaratishga oid tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so’z: Maktabgacha ta’lim, jismoniy, aqliy, axloqiy va ijtimoiy rivojlanish, ijtimoiy muhit, malakali pedagog kadrlar, zamonaviy binolar, o’yinchoqlar.

Аннотация. В данной статье подробно рассматриваются методы эффективного управления дошкольными образовательными организациями, которые являются актуальной темой сегодня. Разработаны рекомендации по повышению интереса к знаниям у детей с раннего возраста и созданию благоприятной среды для роста и развития детей в организации.

Ключевые слова: Дошкольное образование, физическое, умственное, нравственное и социальное развитие, социальная среда, квалифицированные педагогические кадры, современные здания, игрушки.

Annotation. This article discusses in detail the methods of effective management of preschool educational organizations, which are a hot topic today. Recommendations have been developed to increase our children's interest in knowledge from an early age and create a favorable environment for the growth and development of children in the organization.

Keywords: Preschool education, physical, mental, moral and social development, social environment, qualified pedagogical personnel, modern buildings, toys.

KIRISH. Bugungi kunda maktabgacha ta’lim tizimi jamiyat taraqqiyotining muhim bo’g’ini hisoblanadi. Chunki, bolalarning shaxs sifatida shakllanishi, ma’naviy va aqliy rivoji aynan maktabgacha ta’lim davridan boshlanadi. Shu sababli ushbu sohani samarali boshqarish davlat miqyosidagi dolzarb vazifalardan biridir. Maktabgacha ta’limni samarali boshqarish nafaqat ta’lim sifati, balki kelajak avlodning barkamol bo’lib yetishishida hal qiluvchi omil bo’lib xizmat qiladi.

So’nggi yillarda O‘zbekistonda maktabgacha ta’lim tizimini tubdan isloh qilish bo’yicha qator muhim qarorlar qabul qilindi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 29-dekabrda “2017–2021 yillarda maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi PQ-2707 Qarori [1], 2017-yil 30-sentabrda “Maktabgacha ta’lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi PF-5198 Farmoni [2], 2017-yil 30-sentabrda “O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligi faoliyatini tashkil etish to’g’risida”gi PQ-3305 Qarori [3], O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-mayda “Maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to’g’risida”gi PQ-4312 Qarorlari [4] maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarmog’ining kengaytirilishi, nodavlat sektorning rivojlanishi, pedagog kadrlar salohiyatini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Bularning barchasi boshqaruv tizimining samaradorligini oshirishni talab etadi.

Maktabgacha ta’limni boshqarish — bu ta’lim tashkilotlari faoliyatini rejalashtirish, tashkil etish, muvofiqlashtirish, nazorat qilish va tahlil etish jarayonlarining majmuasidir [6]. Boshqaruvning asosiy maqsadi ta’lim-tarbiya jarayonini yuqori sifat darajasiga olib chiqishdan iborat. Boshqaruv

respublika miqyosida, viloyat va tuman darajasida, maktabgacha ta'lim tashkiloti darajasida amalga oshiriladi[7].

Tashkilot rahbari boshqaruvning asosiy subyekti hisoblanadi. U pedagogik jamoa ishini muvofiqlashtiradi, ta'lim sifati uchun javob beradi hamda moddiy-texnik bazaning mustahkamlanishini ta'minlaydi. Pedagog kadrlar maktabgacha ta'lim tizimining eng muhim bo'g'inidir. Ularni samarali boshqarish quyidagilarni o'z ichiga oladi: kadrlarni tanlash, malakasini oshirish, attestatsiyadan o'tkazish, rag'batlantirish, mehnat sharoitlarini yaxshilash.

Pedagoglarning doimiy ravishda o'qitilishi va malakasi oshirilishi ta'lim sifati oshishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Nazorat ishlari muntazam va tizimli olib borilishi zarur. Samarali boshqaruv moliyaviy va moddiy-texnik ta'minotsiz mumkin emas. Maktabgacha ta'lim tashkiloti uchun: zamonaviy binolar, o'yinchoqlar, didaktik materiallar, axborot texnologiyalari zarur. Moliyaviy resurslardan oqilona foydalanish boshqaruv samaradorligini belgilovchi muhim omil hisoblanadi[7].

Xulosa qilib aytganda, maktabgacha ta'limni samarali boshqarish jamiyat taraqqiyoti uchun muhim ahamiyatga ega. Boshqaruv tizimi qanchalik to'g'ri yo'lga qo'yilsa, ta'lim sifati ham shunchalik yuqori bo'ladi. Maktabgacha ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar, innovatsion yondashuvlar va raqamli texnologiyalar boshqaruv samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda.

Umuman olganda, maktabgacha ta'limni samarali boshqarish – bu nafaqat alohida ta'lim tashkilotining, balki butun jamiyatning kelajak rivoji uchun strategik ahamiyatga ega jarayon bo'lib, unga mas'uliyatli, ilmiy asoslangan va uzluksiz takomillashib boruvchi yondashuv zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydagi "Maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-4312 Qarorlari
2. "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi Qonun. — O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi. – Toshkent, 2019.
3. Raxmonqulova, D. Maktabgacha ta'lim pedagogikasi. — Toshkent: Fan va texnologiya nashriyoti, 2021.
4. Xolmatova, S. Ta'lim menejmenti va zamonaviy boshqaruv texnologiyalari. — Toshkent: Innovatsiya nashriyoti, 2022.
5. Yo'ldoshev J. Ta'lim muassasalarini boshqarish asoslari. – Toshkent, 2019.
6. Abdullayeva N.Sh. The role of modeling in the development of coherent speech of senior preschoolers// International journal of multidisciplinary research and analysis ISSN(print): 2643-9840, ISSN(online): 2643-9875 Volume 03 Issue 12 December 2020 DOI: 10.47191/ijmra/v3-i12-09, Impact Factor: 5.522 Page No.- 321-323
7. Abdullayeva N.Sh. Pedagogical possibilities of design activity in the process of increasing the qualification of preschool workers// European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences. Volume 8 Number 1 2020 Page 90-95 bet
8. Valiyeva F.R. Ensuring continuity in the training of future professionals in the education system.// European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences/ Volume 7 Number 6, 2019. ISSN 2056-5852
9. Valiyeva. F.R., Kurbonov Sh. Continuity in the education system // Wschodnioeuropejskie // East european science journal 12(52)2019 45-52. 2020